



“O‘zDJTSU Xalqaro talabalar onlayn chempionati” musobaqasi NIZOMI

I bob. Umumiy qoidalar.

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.01.2021 yildagi PQ-4954-son qarori “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini ijrosini taminlash. Mamlakatimizda shaxmatni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yuqori iqtidorga ega bo‘lgan yoshlarni tanlash, saralab olish va ularni professional shaxmatchilar va xalqaro grossmeysterlar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, trenerlar uchun munosib mehnat sharoitini yaratish, shuningdek, O‘zbekiston shaxmat maktabini yaratish va shaxmatni yanada ommalashtirishga qaratiladi.

2. Musobaqa O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi hamda Xalqaro shaxmat federatsiyasining amaldagi “FIDE qoidalari”ga muvofiq lichess.org sayti orqali tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

II bob. Maqsad va vazifalari.

3. Musobaqani o‘tkazishdan asosiy maqsad O‘zbekiston Respublikasida shaxmat sport turini ommalashtirish, talabalarni ommaviy tarzda jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish va ular orasidan professional shaxmatchilarni yetishtirish.

4. Musobaqaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, jismoniy qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, jismoniy va ruhiy barkamol bo‘lib rivojlanishi, mehnatga layoqatini oshirilishi, shu bilan birga zararli odatlar hamda turli kasalliklarga chalinishini oldini olish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish;

- o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish, turli sport musobaqalari, tadbirlar orqali o‘z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish;

- yoshlarni jismoniy tarbiyalash, sog‘lomlashtirish hamda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga ko‘proq jalb etish;

- yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olishni tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo‘naltirishdan iboratdir.

III bob. Musobaqalarni o‘tkazishga rahbarlik qilish.

5. Musobaqalarni o‘tkazish bo‘yicha umumiy rahbarlik O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tomonidan amalga oshiriladi.

IV bob. Musobaqalarni o‘tkazish muddatlari.

6. Musobaqa Lichess.org saytida “O‘zDJTSU Shaxmat jamoasi” o‘gil bolalar klubining havolasi - <https://lichess.org/team/uzdjtsu-shaxmat-jamoasi-ogil-bolalar>

Qizlar klubining havolasi - <https://lichess.org/team/uzdjtsu-shaxmat-jamoasi-qizlar>

Musobaqa 3 noyabr kuni Toshkent vaqti bilan soat 14:00 da lichess.org sayti orqali o‘tkaziladi.

O‘gil bolalar musobaqasining havolasi – <https://lichess.org/swiss/H4buudPl>

Qizlar musobaqasining havolasi - <https://lichess.org/swiss/XAymfOg4>

V bob. Musobaqada ishtirok etish shartlari.

7. Musobaqada O‘zbekiston Oliy ta’lim muassasalarida hamda Xorijiy ta’lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalar ishtirok etadi.

8. Musobaqada qatnashish uchun Lichess.org saytidan to‘liq ism familiya bilan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar qatnashishi mumkun.

9. Ishtirokchilar 3 noyabr gacha google.doc orqali ro‘yxatdan o‘tishi lozim <https://forms.gle/Weyibbjg1unntUXU6>

10. Ishtirokchilar ЯНДЕКС ТЕЛЕМОСТ <https://telemost.yandex.ru/> platformasi orqali barcha o‘yinlarda video translyatsiyani yoqqan holda qatnashishlari lozim. Musobaqa boshlanishidan 15 daqiqa oldin lichess.org sayti orqali ЯНДЕКС ТЕЛЕМОСТ havolasi yuboriladi.

11. Musobaqada chiterlikdan foydalanilgan holda ushbu qatnashchi musobaqadan chetlatiladi va natijalari bekor qilinadi.

12. Musobaqalar O‘zbekiston shaxmat federatsiyasi hamda Xalqaro shaxmat federatsiyasi tomonidan tasdiqlangan amaldagi “FIDE qoidalari” ga muvofiq o‘tkaziladi.

VI bob. Musobaqalarni o‘tkazish shartlari.

13. Musobaqalarni o‘tkazish bo‘yicha hakamlar hay’ati va e’tirozlarni ko‘rib chiqish (apellyatsiya) komissiyasi tasdiqlanadi.

14. Musobaqa shvetsarcha tizim bo‘yicha 11 turdan iborat tartibda tashkil etiladi. Har bir o‘yin uchun tomonlarga 3 daqiqadan vaqt beriladi va birinchi yurishdan boshlab har bir yurishga 2 soniyadan vaqt qo‘shib boriladi.

15. O‘rinlar eng ko‘p to‘plangan ball bilan belgilanadi. Ballar teng bo‘lgan taqdirda, o‘rinlar lichess.org platformasida koefisient orqali aniqlanadi.

VII bob. Musobaqalarni moliyalashtirish shartlari.

16. Musobaqani o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mablag‘lar hisobidan qoplanadi.

IX bob. G‘oliblarni taqdirlash

18. Musobaqa g‘oliblari pul mukofotlari bilan taqdirlanadi. Ushbu musobaqada xorijiy davlat fuqorasi g‘oliblikni qo‘lga kirtsa, O‘zbekiston Respublikasi valyuta

to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartibda Markaziy Bank kursi bo'yicha konvertatsiya qilinib, o'rnatilgan tartib (viza karta, master kard) PK o'tkazib beriladi. O'zbekiston Respublikasi talabasi sovindor bo'lsa milliy valyuta so'mda taqdirlanadi.

1-o'rin 1 500 000 so'm

2-o'rin 1 000 000 so'm

3-o'rin 500 000 so'm

Ayollar o'rtasi

1-o'rin 1 500 000 so'm

2-o'rin 1 000 000 so'm

3-o'rin 500 000 so'm

X bob. Murojaat uchun:

19. Jumanov Elbek Mamatkul o'g'li "Sport psixologiyasi va pedagogika kafedrası" o'qituvchisi tel: +998941676707 elbekjumanov@gmail.com


XI bob. Yakunlovchi qoidalar

20. Ushbu Nizomga Tashkiliy qo'mita qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor

O'zDJTSU sport klubi raisi o'rinbosari:



 Sh.S. Mirzanov.

 T.Sh. Rahmonov.